

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



“TASDIQLAYMAN”

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

O.SH.Bazarov

2024 yil

Ro'yxatga olindi № 03/02/032

“27” iyun 2024 yil

**DAVLAT KADASTR ASOSLARI**  
**FANINING O‘QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 700 000 – Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
- Ta’lim sohasi:** 720 000 – Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
- Ta’lim yo‘nalishlari:** 60722500 - Geodeziya, kartografiya va kadastr  
(funktsiyalar bo‘yicha)

Fan modul kodi DKAS12304	O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Davlat kadastr asoslari	60	60	120

2. **Fanning mazmuni**

**Fanni o'qitishdan maqsad** – talabalarga Respublikamizda mavjud davlat kadastr obyektlari ya'ni yer, suv, o'rmon, ko'chmas mulk, shaharsozlik kadastrlari va boshqa kadastr turlaridan samarali, maqsadli va oqilona foydalanish hamda uni har tomonlama muhofaza qilish bo'yicha tushincha berish xamda ushbu ko'chmas mulk obyektlari kadastrlarini yaratish va yuritish bo'yicha zaruriy ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga “Davlat kadastrlari asoslari” fanining mohiyati, O'zbekiston Respublikasi hududida turli obyektlar kadastrlarini tuzishning mazmuni, ahamiyati va kadastrlarning turlari va ularda amaliyotda qo'llanib kelinayotgan yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar va uslubiy ko'rsatmalardan foydalanish asosida kadastr obyektlarida olib boriladigan monitoring ishlari rolini aniqlash, uning yechimlarining samaradorligini baholash va iqtisodiy asoslash uslublarini takomillashtirish, davlat kadastrlari obyektlaridan foydalanishni yaxshilashning samarali yo'llarini aniqlash va ularni rivojlanishining ustivor yo'nalishlarini tanlash, samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

**Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-Mavzu: Kirish. “Davlat kadastrlari” to'g'risida umumiy ma'lumotlar.**

“Davlat kadastrlari asoslari” fanining predmeti, vazifalari va ilmiy asoslari. Davlat kadastrlari tushinchasi. Davlat kadastrlari yagona tizimi. Davlat kadastrlari yuritishning asosiy prinsiplari. Davlat kadastrlari obyektlari. Davlat kadastrlarini yuritishda davlat boshqaruvi. Davlat kadastrlari obyektlari manbalari tushunchasi va ularning umumiy tavsifi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, Davlat kadastrlari to'g'risidagi Kodeks va qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Qoraqolpog'iston Respublikasi va viloyat hokimiyatlari qarorlari kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarning manbalari.

**2-Mavzu: Davlat yer kadastr ishlari tavsifi.**

O'zbekiston respublikasida yer kadastrini yuritish masalalari. Yer kadastrini yuritishda “Yer kodeksi” va “Davlat yer kadastr to'g'risidagi qonun” ning ahamiyati, maqsadi va vazifalari. Yer toifalari bo'yicha yer kadastrini o'tkazish prinsiplari. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, aholi punktlarining yerlari va boshqa yerlarda kadastr ishlarini o'tkazish. Yer kadastrini o'tkazuvchi vakolatli organlar hamda ularning huquq va majburiyatlari.

**3-Mavzu: Bino va inshootlar davlat kadastr tizimi.**

Bino va inshootlar davlat kadastr tarkibi va mazmuni. Binolar va inshootlar davlat kadastrida qo'llaniladigan asosiy tushunchalar. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish. Bino va inshootlar kadastrini yuritishni tashkil etish. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish sohasidagi davlat boshqaruvi va ularning huquqiy vakolatlari. Binolar va inshootlar turlari va ulardan foydalanish xususiyatlari. Binolar va inshootlar tizimini yuritish tartib va talablari. Binolar va inshootlarni tizimga keltirish.

**4-Mavzu: Binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlar.**

Binolar va inshootlarga bo'lgan huquq turlari. Binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar. Turar joy binolari va inshootlarga bo'lgan huquqlarni va bitimlarni tasdiqlovchi hujjatlar. Turar joy bo'lmagan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni va bitimlarni tasdiqlovchi hujjatlar. Binolar va

inshootlarga bo'lgan mulkiy huquqni cheklovchi va to'xtatuvchi hujjatlar.

#### **5-Mavzu: Binolar va inshootlarni xatlovdan o'tkazish.**

Binolar va inshootlarni xatlovdan o'tkazish tartibi va talablari. Binolar va inshootlarni yalpi xatlovdan o'tkazish tartibi. Binolar va inshootlar xatlovini o'tkazishda geodezik-topografik ishlar. Binolar va inshootlar muhofaza zonalarini aniqlash va rasmiylashtirish. Binolar va inshootlar xatlovi natijalarini umumlashtirish, ko'rib chiqish, kelishish va tasdiqlash.

#### **6-Mavzu: Chiziqli inshootlar davlat kadastrlari va ularni yuritish.**

Chiziqli inshootlar tushunchasi. Davlat kadastrlari yagona tizimida chiziqli inshootlar davlat kadastrlarining o'rni va ahamiyati. Aloqa obyektlari davlat kadastrlari tushunchasi. Transport quvurlarining davlat kadastrini va uni yuritish. Davlat avtomobil yo'llari va temir yo'llar davlat kadastrini yuritish

#### **7-Mavzu: Tarixiy va madaniy meros obyektlari kadastrini.**

Tarixiy va madaniy yodgorliklar, ko'chmas tarixiy yodgorliklar, arxeologik, arxitekturli va monumenti asarlar

#### **8-Mavzu: Davlat suv va o'rmon kadastrlari.**

Davlat suv kadastrini DKYAT da suv kadastrining o'rni va ahamiyati. Davlat suv kadastrida monitoring o'tkazish masalalari. Davlat o'rmon kadastrini. Davlat o'rmon kadastrini obyektlariga taalluqli yer uchastkalari, binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish vakolatli organlar tomonidan, ko'chmas mulkka huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibi.

#### **9-Mavzu: O'simlik va hayvonot dunyosi davlat kadastrlari.**

O'simlik va hayvonot dunyosi davlat kadastrlarining Davlat kadastrlari yagona tizimidagi o'rni va vazifasi. O'simlik va hayvonot dunyosi davlat kadastrlarida monitoring o'tkazish prinsiplari. O'simlik dunyosi kadastrini monitoringi o'tkazishda yovvoyi o'simliklar turlari tarkibi, soni, geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsifi, ulardan foydalanish tahlili. Hayvonot dunyosi kadastrini yuritishda

yovvoyi hayvonlar soni, ularning geografik tarqalishi, miqdoriy va sifat tavsiflari, ulardan foydalanish hamda ularni iqtisodiy baholash tahlili

#### **10-Mavzu: Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrlari.**

Davlat qo'riqxonalari, kompleks (landshaft) zakazniklar, tabiiy bog'lar, davlat tabiat yodgorliklari, zakazniklari va tabiat pitomniklari, tabiiy kurort hududlari, dam olish hududlari, suvni muhofaza qilish zonalarini va qirg'oqbo'yi polosalari, yer usti va yer osti suvlari hosil bo'ladigan hududlar (daryo vodiylari, surilma konuslari, tog' etaklari) baliqchilik xo'jaligi hududlari, alohida tabiiy resurslarni boshqarish uchun hududlar, davlat biosfera rezervatlari hamda qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalar bilan muhofaza etiladigan toifaga kiritilgan boshqa tabiiy hududlar

#### **11-Mavzu: Respublikamizda yuritilayotgan boshqa kadastr turlari**

Foydali qazilma konlari, belgilari va texnogen hosilalar davlat kadastrini. Davlat shaharsozlik kadastrini. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastrini. Energetika obyektlari davlat kadastrini. Chiqindilarni ko'mish va utilizatsiya qilish joylari davlat kadastrini. Tabiiy xavf yuqori bo'lgan zonalar davlat kadastrini.

#### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- ✓ Davlat kadastrlari tushunchasi. Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT). DKYAT yuritish prinsiplari
- ✓ Yer uchastkalarini xatlovdan o'tkazish. Yer uchastkasi syomkasi.
- ✓ Yer kadastrini xarita va planlari.
- ✓ Bino va inshootlarni xatlovdan o'tkazish
- ✓ Avtomobil yo'llari davlat kadastrini obyektlarida xatlov o'tkazish Aloqa obyektlari davlat kadastrini obyektlarida xatlov o'tkazish
- ✓ Transport quvurlari davlat kadastrini obyektlarida xatlov o'tkazish
- ✓ Temir yo'llar davlat kadastrini obyektlarida xatlov o'tkazish
- ✓ Davlat suv kadastrini obyektlarida xatlov o'tkazish

- ✓ Davlat o'rmon kadastrida obyektarida xatlov o'tkazish
- ✓ Tarixiy va madaniy meros obyektlari kadastrida obyektlarida xatlov o'tkazish
- ✓ Boshqa kadastr turlarida xatlov o'tkazish prinsiplari
- ✓ Davlat kadastr obyektlari yagona axborotlar tizimini yaratish masalalari.
- ✓ Davlat kadastrlari obyektlarini davlat ro'yxatiga tayyorlash
- ✓ Davlat kadastr obyektlari kadastr hujjatlarini tayyorlash

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### IV. Hisoblash grafik ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar:

Hisoblash grafik ishlari ta'lim yo'nalishiga mos ravishda tanlab olinadi. Bir o'quv yilida hisoblash grafik ishlarining soni to'rtadan oshmasligi tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulot o'qituvchisi tomonidan "Davlat kadastrlari"ga tegishli ma'lum bir davlat kadastr turini talaba o'zi yashab turgan hudud misolida yaratish va yuritish hamda hududning raqamli xaritasini yaratish bo'yicha har bir talabaga alohida topshiriq beradi.

Berilgan topshiriqga asosan "Hisoblash grafik ishi"da quyidagi masalalarni bajaradi:

##### 1-XGI bo'yicha:

- ✓ talaba o'zi yashab turgan hudud misolida yer va bino-inshootlar kadastrini yaratish va yuritish ishlarini tashkillashtiradi;
- ✓ tegishli davlat kadastr bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tushuntirish xatida izohlaydi.

##### 2-XGI bo'yicha:

- ✓ talaba o'zi yashab turgan hudud misolida yer va bino-inshootlar kadastr hujjatlar to'plamini yaratish va ma'lumotlarni DKYAT ga kiritish masalalarini o'rganadi;

- ✓ yer va bino-inshootlar kadastr hujjatlar to'plamini yaratish va ma'lumotlarni DKYAT ga kiritish ishlarini tushuntirish xatida izohlaydi.

##### 3-XGI bo'yicha:

- ✓ talaba o'zi yashab turgan hududning yer va bino-inshootlar kadastr ma'lumotlari bo'yicha raqamli xaritasini yaratadi;
- ✓ hudud raqamli xaritasini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tushuntirish xatida izohlaydi.

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

- ✓ O'zbekistonda davlat kadastrlarini yuritish borasida qabul qilingan qonun, qaror va farmonlar
- ✓ O'zbekistondagi mavjud yer toifalari
- ✓ Aholi punktlari yerlari
- ✓ Bino va inshootlar klassifikatsiyasi
- ✓ Ko'p va kam qavatli uylar xatlovi
- ✓ Yakka tartibda qurilgan uylar monitoringi
- ✓ Chiziqli inshootlarda monitoring o'tkazish
- ✓ Hayvonot olami va o'simliklar dunyosi davlat kadastrida monitoring o'tkazish
- ✓ Davlat kadastrlarida o'tkazilgan monitoring natijalarini tahlil qilish
- ✓ Davlat kadastrlarida monitoring o'tkazish natijalari bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish masalalari

#### 3 Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

- Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:
- ✓ davlat kadastr obyektlari kadastrlarini yuritish, xususan ularning huquqiy, texnik, texnologik va iqtisodiy qirralari haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;
  - ✓ turli obyektlar kadastrlarini shakllantirish va yuritish asoslarini, turli obyektlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatiga olish, hisoblarini yuritish, baholash va tahlil qilishni ko'nikmalariga ega bo'lishi;

\* fanini o'qitish jarayonida talaba mavjud kadastr turlarining o'rni va xususiyati, mohiyati va ahamiyatini, shuningdek ularda olib boriladigan tekshirish, tadqiq qilish va takomillashtirish malakasiga ega bo'lishlari kerak.

#### VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar ( mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

#### VIII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushinchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

#### Asosiy adabiyotlar:

1. 3D Cadastre in an International Context, Jonatien E. Stoter and Peter van Orsterom 2006. CRC Press Taylor & Francis Group, New York.
2. Davlat kadastrlari. O'quv qo'llanma. Bobojonov A.R., Raxmonov O.R. va boshqalar, T., TIMI.Cho'lpon nashryoti, 2008y. 237b.
3. Jo'raqulov O.D., G'.N.Aliqulov, Niyazov V.R. Yer uchastkasi va bino-inshoatlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish – Q.: SamDAOI, 2016. – 188 b.
4. «O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrlarining yagona tizimi-ni yaratish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi 255-sonli Qarori, T., 1996y.
- 5 Yarmatova D., Bobojonov A.,Raximov A. "Davlat kadastr asoslari" Toshkent 2014 y.

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidaga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar. №11.
2. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi". T. 2018 y.
3. O'zbekiston Respublikasining qonun "Davlat kadastrlari to'g'risida" T., Adolat, 2001.
4. Geodeziya va kartografiya to'g'risidagi qonun. O'zbekiston Respublikasining yangi qonunlari. 19-jild, T., Adolat, 1999.
5. "O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrining yagona tizimini yaratish bo'yicha Nizomni tasdiqlash to'g'risida" O'z R. Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyuldagi 255 –sonli Qarori, T.,1996

#### Axborot manbaalari:

1. www.lex.uz–O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
2. http://www.Ziyo.net 12
3. http://www.Tsure.ru
4. http://www.landkadast.com
7. Fan dasturi Qarshi muhandislik - iqtisodiyot instituti Kengashning 202\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_dagi \_\_\_-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8. **Fan/modul uchun ma'sular:**  
**G'.N.Aliqulov** - QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrası mudiri, q.x.f.n., dotsent  
**Z.Qilichev** - QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrası assistenti  
**N.Abdirahmatov** - QarMII, "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrası assistenti

9.

**Taqrizchilar:**

**S.Turayev.** – Davlat kadastrlari agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi  
boshliq o‘rinbosari

**K.Xujakeldiyev.** – QarMII, “Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish”  
kafedrasida dotsenti